UDK: **005.334**

Aliqulov Aziz Haydarjonovich
O‘zMU, “Davlat va korporativ strategiyalari” kafedrasi dotsenti v.b., PhD
Email: azizaliqulov81@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6734-6290

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA INQIROZLARNING YUZAGA KELISH OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va ularning iqtisodiy mohiyati o‘rganilgan. Korporativ tuzilmalarda inqirozlarning shakllanishiga sabab bo‘luvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinib ularning boshqaruv samaradorligi hamda moliyaviy barqarorlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, aksiyadorlar va menejerlar o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyati strategik rejalashtirishdagi kamchiliklar korporativ nazoratning sustligi va moliyaviy risklarning inqirozli holatlar rivojlanishidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda inqirozga qarshi boshqaruvning asosiy prinsiplari hamda iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillar tizimlashtirilib, ularning salbiy ta’sirini kamaytirishda ichki nazorat, strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, inqiroz, inqiroz omillari, korporativ tuzilma, moliyaviy barqarorlik, strategik boshqaruv, korporativ nazorat, risklarni boshqarish, inqirozga qarshi boshqaruv.

Аннотация. В данной статье исследованы основные факторы возникновения кризисов в системе корпоративного управления и их экономическая сущность. Проанализированы внутренние и внешние факторы, способствующие формированию кризисных ситуаций в корпоративных структурах, а также рассмотрено их влияние на эффективность управления и финансовую устойчивость. Кроме того, изучена роль конфликтов интересов между акционерами и менеджерами, недостатков стратегического планирования, слабости корпоративного контроля и финансовых рисков в развитии кризисных ситуаций. В исследовании систематизированы основные принципы антикризисного управления, а также его экономические и правовые механизмы. По результатам исследования классифицированы факторы возникновения кризисов в системе корпоративного управления и обоснована значимость механизмов внутреннего контроля, стратегического планирования и управления рисками в снижении их негативного воздействия.

Ключевые слова: корпоративное управление, кризис, факторы кризиса, корпоративная структура, финансовая устойчивость, стратегическое управление, корпоративный контроль, управление рисками, антикризисное управление.

Abstract. This article examines the main factors contributing to the emergence of crises in the corporate governance system and their economic nature. The internal and external factors causing crises in corporate structures are analyzed, and their impact on management efficiency and financial stability is highlighted. In addition, the study considers the role of conflicts of interest between shareholders and managers, shortcomings in strategic planning, weaknesses in corporate control, and financial risks in the development of crisis situations. The main principles of crisis management and its economic and legal mechanisms are systematized. Based on the research findings, the factors contributing to the emergence of crises in corporate governance are classified, and the importance of internal control, strategic planning, and risk management mechanisms in reducing their negative effects is substantiated.

Keywords: corporate governance, crisis, crisis factors, corporate structure, financial stability, strategic management, corporate control, risk management, crisis management.

1. Kirish

Korporativ tuzilmalar faoliyatida yuzaga keladigan inqirozlar ko‘pincha moliyaviy ko‘rsatkichlarning yomonlashuvi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va to‘lovga qobiliyatning pasayishi orqali namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu holatlarni faqat moliyaviy muammolar natijasi sifatida baholash yetarli emas. Chunki kompaniyaning iqtisodiy ahvoli yomonlashishidan oldin uning boshqaruv tizimida muayyan kamchiliklar shakllangan bo‘lishi mumkin. Strategik qarorlarning noto‘g‘ri qabul qilinishi, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish va boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratning sustligi keyinchalik jiddiy iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar korporativ tuzilmalar faoliyatiga qo‘shimcha talablarni qo‘ymoqda. Xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar, inflyatsiya va tashqi savdo munosabatlaridagi cheklovlar kompaniyalarning ishlab chiqarish hamda investitsiya faoliyatiga ta’sir etmoqda. Bunday sharoitda bir xil iqtisodiy muhitda faoliyat yuritayotgan korxonalarning inqirozga chidamlilik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu farqni faqat ularning moliyaviy imkoniyatlari bilan izohlab bo‘lmaydi. Boshqaruv qarorlarining sifati, mavjud xatarlarni oldindan baholash va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlari ham bunda muhim o‘rin tutadi.

Korporativ boshqaruv amaliyotida inqirozning dastlabki belgilari har doim ham moliyaviy hisobotlarda darhol aks etmaydi. Ayrim hollarda boshqaruv organlari o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyati axborot almashinuvining sustligi, strategik rejalarning bajarilmasligi va ichki nazoratdagi kamchiliklar uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi. Ularning salbiy oqibatlari esa kompaniyaning moliyaviy natijalarida keyinroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli inqiroz sabablarini o‘rganishda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasdan, ularning shakllanishiga ta’sir etgan boshqaruv jarayonlarini ham tahlil qilish zarur.

Ichki omillar korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatida mavjud bo‘lgan muammolardan kelib chiqadi. Raqobatbardoshlikning pasayishi, marketing siyosatidagi xatolar, eskirgan texnologiyalardan foydalanish va investitsiya faoliyatining sustligi shular jumlasidandir. Aktivlar va passivlar o‘rtasidagi nomutanosiblik hamda moliyaviy resurslarning yetishmasligi korxona faoliyatini yanada murakkablashtiradi. Bundan tashqari debitorlik qarzdorligining ortib borishi va yetkazib beruvchilarga haddan tashqari bog‘lanib qolish moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir qiladi. Moliyaviy xatarlarni yetarlicha hisobga olmaslik esa mavjud muammolarning chuqurlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Inqiroz omillari barcha korxonalarga bir xil darajada ta’sir qilmaydi. Ayrim iqtisodiy o‘zgarishlar butun tarmoq yoki ko‘plab kompaniyalar faoliyatiga ta’sir etsa, boshqa omillar faqat muayyan korxonaning ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda korxonaning qaysi tarmoqda faoliyat yuritishi, hududiy joylashuvi va mavjud iqtisodiy imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun korporativ boshqaruvda inqiroz omillarini umumiy va korxonaga xos xususiyatlar asosida o‘rganish zarur. Bu inqiroz sabablarini aniqlash va unga qarshi tegishli boshqaruv choralarini belgilash imkonini beradi.

Inqirozning dastlabki belgilarini aniqlash ham korxona faoliyati uchun muhim hisoblanadi narxlarning keskin o‘zgarishi, qarzdorlikning ko‘payishi, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanishi va zarur resurslarning yetishmasligi korxonada muammolar kuchayib borayotganini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, qarzdorlikning ortishi moliyaviy qiyinchilikni ko‘rsatsa-da, uning kelib chiqishi noto‘g‘ri boshqaruv qarorlari yoki tashqi iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli korporativ boshqaruv tizimida inqirozning faqat ko‘zga tashlanadigan belgilarini emas balki ularni yuzaga keltirgan ichki va tashqi omillarni ham chuqur o‘rganish lozim.

O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish jarayonida ham kompaniyalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash masalasi muhim hisoblanadi.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi va ijroiya organlari faoliyatining samaradorligi strategik qarorlar uchun javobgarlik hamda ichki nazorat mexanizmlarining ishlash

darajasi inqirozli holatlarning oldini olish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan korporativ tuzilmalar faoliyatidagi inqirozlarni faqat iqtisodiy natijalar orqali balki ularni yuzaga keltiruvchi tashkiliy strategik, moliyaviy va institutsional omillar asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

2. Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda korporativ boshqaruv tizimining barqaror faoliyat yuritishi korporativ tuzilmalarda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishi ko‘p omilli jarayon hisoblanib uning shakllanishiga mulkdorlar va menejerlar o‘rtasidagi manfaatlar nomutanosibligi, strategik boshqaruvdagi kamchiliklar, moliyaviy beqarorlik hamda korporativ nazorat mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bu borada xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan korporativ boshqaruv tizimida yuzaga keladigan muammolarning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga qaratilgan turli nazariy yondashuvlar ilgari surishgan.

Xususan, M. Jensen va U. Mekling (1976) o‘zlarining agentlik munosabatlari nazariyasida korporativ boshqaruvdagi muammolarning asosiy manbalaridan biri sifatida mulkdorlar va menejerlar manfaatlarining o‘zaro mos kelmasligini ko‘rsatadilar. Ularning fikriga ko‘ra, mulkchilik va boshqaruv funksiyalarining ajralishi agentlik xarajatlarining shakllanishiga olib keladi. Bunda menejerlarning shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yishi korxona resurslaridan foydalanish samaradorligining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu nazariy yondashuv korporativ boshqaruv tizimida manfaatlar to‘qnashuvi va nazorat mexanizmlarining zaifligi inqiroz xavfini kuchaytiruvchi ichki omillar sifatida namoyon bo‘lishini tushuntirishga xizmat qiladi. [1]

Shuningdek, Y. Fama va M. Jensen (1983) korporativ boshqaruv samaradorligini ta’minlashda qarorlarni qabul qilish va ularni nazorat qilish funksiyalarining ajratilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotida boshqaruv qarorlarini shakllantirish va nazorat qilish vakolatlarining bir markazda jamlanishi agentlik muammolarini kuchaytirishi mumkinligi nazariy jihatdan izohlangan. Ushbu qarashlardan kelib chiqib, korporativ tuzilmalarda vakolatlarning nomutanosib taqsimlanishi va kuzatuv mexanizmlarining samarasizligi boshqaruv inqirozlarining yuzaga kelishiga sharoit yaratishi mumkin. [2]

Shu kabi, D. Hambrik va F. Meyson (1984) tomonidan ilgari surilgan yuqori boshqaruv bo‘g‘ini nazariyasida korxonalarning strategik qarorlari va faoliyat natijalari rahbarlarning tajribasi bilim darajasi hamda individual xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv korporativ boshqaruvda inqirozlarning yuzaga kelishini rahbarlarning strategik qarorlar qabul qilish salohiyati bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi.

Jumladan, tashqi iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarni yetarli darajada baholamaslik risklarni noto‘g‘ri aniqlash va strategik rejalashtirishdagi xatolar korxonalarning iqtisodiy barqarorligini zaiflashtirishi mumkin. [3]

Bundan tashqari, A. Shleyfer va R. Vishni (1997) korporativ boshqaruv tizimini tadqiq etishda investorlar manfaatlarini himoya qilish va mulkchilikning konsentratsiyalashuviga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning ilmiy qarashlarida korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi investorlarning o‘z mablag‘laridan daromad olish huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ushbu yondashuv asosida aksiyadorlar huquqlarining yetarli darajada himoyalanmasligi va korporativ nazoratning zaifligi boshqaruv tizimidagi institutsional nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlash mumkin. [4]

Shu bilan birga, R. La Porta, F. Lopes-de-Silanes, A. Shleyfer va R. Vishni (1998) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda investorlar huquqlarini huquqiy himoya qilish darajasi va korporativ mulkchilik tuzilmasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan.

Ularning natijalari korporativ boshqaruvning samarali faoliyat yuritishida huquqiy himoya va institutsional muhit muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Bu esa korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelish sabablarini faqat korxonaning ichki muammolari bilan cheklamasdan tashqi institutsional omillar orqali ham baholash zarurligini anglatadi. [5]

Korporativ boshqaruv tizimining samaradorligiga ta’sir etuvchi yana bir muhim yo‘nalish boshqaruv vakolatlarining haddan tashqari markazlashuvi bilan bog‘liq. L. Bebchuk, A. Koen va A. Ferrell (2009) korporativ boshqaruvga oid ayrim qoidalarning korxona qiymati bilan bog‘liqligini empirik jihatdan o‘rganganlar.

Menejmentning mavjud mavqeyini mustahkamlovchi ayrim boshqaruv mexanizmlari korxona qiymatining pasayishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Ushbu natijalar korporativ boshqaruv tizimida hisobdorlikning cheklanishi va boshqaruv vakolatlarining muvozanatsiz shakllanishi iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir etishi mumkinligini ko‘rsatadi. [6]

Bundan tashqari, S. Klaessens va B. Yurtoglu (2013) rivojlanayotgan bozorlarda korporativ boshqaruv samaradorligiga bag‘ishlangan tadqiqotida samarali korporativ boshqaruv korxonalarning moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi, kapital qiymatini pasaytirishi va faoliyat natijalarini yaxshilashi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar institutsional boshqaruv tizimi zaif bo‘lgan mamlakatlarda ixtiyoriy korporativ boshqaruv mexanizmlarining ta’siri cheklanishini ko‘rsatganlar. Ushbu qarash korporativ inqirozlarning yuzaga kelishida korxona ichidagi boshqaruv kamchiliklari bilan birga mamlakatning institutsional rivojlanish darajasini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. [7]

Ushbu yondashuv doirasida, U. B. Yousaf, K. Jebran va I. Ullah (2024) korporativ boshqaruv hamda moliyaviy qiyinchiliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikka bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni umumlashtirganlar. korporativ boshqaruv va moliyaviy beqarorlik o‘rtasidagi munosabatlarni yagona nazariya asosida to‘liq tushuntirish qiyinligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, ushbu munosabatlarni tahlil qilishda boshqaruv tizimining turli xususiyatlari hamda mamlakatlar va korxonalar o‘rtasidagi institutsional farqlarni hisobga olish talab etiladi. Bu yondashuv korporativ inqirozlarning yuzaga kelish omillarini kompleks ravishda tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi. [8]

Ushbu holat bilan bog‘liq holda, N. A. Rohman va N. Suhardianto (2024) Indoneziya fond birjasida ro‘yxatdan o‘tgan nomoliyaviy kompaniyalar misolida korporativ boshqaruv mexanizmlarining moliyaviy qiyinchiliklar xavfiga ta’sirini o‘rganganlar. institutsional mulkchilik va mustaqil komissarlar ishtiroki moliyaviy qiyinchiliklar ehtimolining pasayishi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Ushbu natijalar korporativ nazorat va boshqaruv mustaqilligi inqiroz xavfini cheklashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligini empirik jihatdan ko‘rsatadi. [9]

Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillarida (2023) korporativ barqarorlikni ta’minlash uchun risklarni boshqarish, ichki nazorat va kuzatuv kengashining strategik nazorat funksiyalarini kuchaytirish muhimligi qayd etilgan. Ushbu tamoyillarda tashqi iqtisodiy tahdidlar, ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar, geosiyosiy beqarorlik va raqamli xavfsizlik bilan bog‘liq risklarni korporativ boshqaruv tizimida hisobga olish zarurligi ko‘rsatilgan. [10]

Bundan tashqari, COSO[1] tomonidan ishlab chiqilgan korporativ risklarni boshqarish konsepsiyasida (2017) risklarni boshqarish jarayonlarini strategik rejalashtirish va korxona faoliyati samaradorligi bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish zarurligi asoslangan. Ushbu yondashuv korporativ tuzilmalarda risklarni boshqarishning strategik qarorlardan ajralgan holda olib borilishi boshqaruv tizimining tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan zaifligini oshirishi mumkinligini nazariy jihatdan tushuntirishga xizmat qiladi. [11]

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelish omillarini bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Jumladan, agentlik munosabatlari bilan bog‘liq muammolar, boshqaruv vakolatlarining nomutanosibligi, strategik qarorlarning samarasizligi, institutsional muhitdagi cheklovlar va moliyaviy risklarning kuchayishi korporativ inqirozlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ajratilishi mumkin.

[1] COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) - AQSHda 1985-yilda tashkil etilgan, korporativ boshqaruv, ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro miqyosda qo‘llanadigan konseptual yondashuvlar va tavsiyalarni ishlab chiquvchi mustaqil professional tashkilotlar qo‘mitasidir.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda korporativ boshqaruvning alohida mexanizmlari va moliyaviy qiyinchiliklar o‘rtasidagi munosabatlar keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu munosabatlarning turli institutsional sharoitlarda bir xil namoyon bo‘lmasligi kompleks tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu sababli korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarni yuzaga keltiruvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’sirini aniqlash, ularning shakllanish mexanizmlarini tizimlashtirish va boshqaruv samaradorligiga ta’sirini baholash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mualliflik yondashuvi sifatida korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelish omillarini institutsional, strategik, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy va tashqi iqtisodiy omillar guruhlariga ajratish taklif etiladi. Bunday tasnif inqirozlarning shakllanishini alohida iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki ichki boshqaruv nomutanosibliklari va tashqi iqtisodiy tahdidlarning o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadigan kompleks jarayon sifatida tadqiq qilish imkonini beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot metodologiyasi korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, ularning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi, strategik qarorlar qabul qilish jarayonidagi nomutanosibliklar, institutsional muammolar va moliyaviy risklarning inqirozli holatlar shakllanishiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, omillarni tasniflash hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar

Hozirgi iqtisodiy sharoitda korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishi va ularning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, bozor munosabatlarining murakkablashuvi, raqobat muhitining kuchayishi hamda iqtisodiy noaniqliklarning ortishi korporativ tuzilmalar faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda korporativ boshqaruv tizimining barqarorligini ta’minlash, inqirozli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ boshqaruvda inqiroz tushunchasi korporativ munosabatlar tizimida manfaatlar muvozanatining buzilishi, boshqaruv qarorlari samaradorligining pasayishi, nazorat mexanizmlarining zaiflashuvi va korxona faoliyatining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy jarayonlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar korporativ tuzilmaning tashkiliy va iqtisodiy imkoniyatlarini cheklab, uning strategik maqsadlariga erishish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Korporativ boshqaruvda inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillarni kelib chiqish manbasi va ta’sir etish xususiyatiga ko‘ra ichki hamda tashqi omillarga ajratish mumkin.

Ichki omillar korporativ tuzilmaning boshqaruv faoliyati, tashkiliy tuzilishi, moliyaviy imkoniyatlari va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq. Ularga boshqaruv qarorlarining yetarli darajada asoslanmaganligi, korporativ nazoratning sustligi, resurslardan samarasiz foydalanish aksiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyati, axborot shaffofligining yetishmasligi va strategik rejalashtirishdagi kamchiliklar kiradi.

Tashqi omillar esa korxonaning bevosita boshqaruv imkoniyatlaridan tashqarida shakllanadigan iqtisodiy va institutsional jarayonlar bilan belgilanadi. Bular iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi, inflyatsion bosim moliya bozorlaridagi beqarorlik raqobat sharoitlarining o‘zgarishi, qonunchilik va tartibga solish talablaridagi o‘zgarishlar hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi noaniqliklarni o‘z ichiga oladi.

Korporativ boshqaruvda inqirozlarning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish ularni muayyan mezonlar asosida tasniflashni talab etadi. Nazariy yondashuvlarni umumlashtirish asosida korporativ boshqaruv inqirozlarini quyidagi asosiy belgilar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin:

1. Kelib chiqish manbasiga koʻra: ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan inqirozlar.

2. Yuzaga kelish xususiyatiga koʻra: obyektiv iqtisodiy sharoitlar bilan bogʻliq hamda subyektiv boshqaruv xatolari natijasida shakllanadigan inqirozlar.

3. Namoyon boʻlish sohasiga koʻra: moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy, institutsional, strategik va korporativ munosabatlar bilan bogʻliq inqirozlar.

4. Ta’sir koʻlamiga koʻra: korxonaning alohida tarkibiy boʻlinmalarini qamrab oluvchi lokal, bir nechta boshqaruv yoʻnalishlariga ta’sir etuvchi kompleks hamda butun korporativ tizim faoliyatini izdan chiqaruvchi tizimli inqirozlar.

5. Rivojlanish sur’atiga koʻra: asta-sekin shakllanadigan, tez rivojlanadigan va kutilmagan tashqi yoki ichki oʻzgarishlar natijasida yuzaga keladigan inqirozlar.

6. Davomiyligiga koʻra: qisqa muddatli, oʻrta muddatli va uzoq muddatli inqirozli holatlar.

7. Boshqaruv darajasiga koʻra: strategik boshqaruv, korporativ nazorat, ijro etuvchi boshqaruv va operatsion faoliyat darajasida yuzaga keladigan inqirozlar.

8. Manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi munosabatlarga koʻra: aksiyadorlar va menejment, majoritar va minoritar aksiyadorlar, rahbariyat va xodimlar hamda korxona va tashqi manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi ziddiyatlar natijasida shakllanadigan inqirozlar.

9. Oqibatlarining ogʻirlik darajasiga koʻra: boshqaruv samaradorligini vaqtincha pasaytiruvchi, moliyaviy barqarorlikni zaiflashtiruvchi korporativ boshqaruv tizimining faoliyatini jiddiy cheklovchi va korxonaning toʻlovga qobiliyatsizligiga olib kelishi mumkin boʻlgan inqirozlar.


10. Bartaraf etish imkoniyatlariga koʻra: mavjud boshqaruv mexanizmlari orqali hal etilishi mumkin boʻlgan korporativ boshqaruv tizimini qayta tashkil etishni talab qiladigan hamda korxona faoliyatini tubdan tarkibiy oʻzgartirish zaruratini yuzaga keltiradigan inqirozlar.

Korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning shakllanishiga sabab boʻluvchi omillar va ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik aks ettirilgan. Korporativ tuzilmalarda boshqaruv samaradorligi aksiyadorlar direktorlar kengashi yuqori va oʻrta boʻgʻin menejerlari hamda boshqa manfaatdor tomonlarning oʻzaro munosabatlariga bevosita bogʻliq. Ushbu munosabatlarda manfaatlar muvozanatining buzilishi korxona faoliyatida turli ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sharoit yaratadi. Xususan majoritar aksiyadorlarning boshqaruv qarorlariga ustun ta’sir koʻrsatishi minoritar aksiyadorlar manfaatlarining yetarli darajada hisobga olinmasligiga sabab boʻlishi mumkin. Direktorlar kengashi tomonidan strategik nazoratning sust amalga oshirilishi va mulkdorlar bilan menejerlar oʻrtasidagi agentlik muammolari korporativ boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Bunday holatlarda qabul qilinayotgan qarorlarning korxona uzoq muddatli manfaatlariga muvofiqligi zaiflashib moliyaviy resurslardan foydalanish va strategik maqsadlarga erishish bilan bogʻliq muammolar yuzaga keladi.


Korporativ boshqaruvda inqirozlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi yana bir muhim jihat boshqaruvning turli darajalarida axborot almashinuvi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bogʻliq. Top-menejerlar tomonidan qabul qilingan notoʻgʻri qarorlar, oʻrta boʻgʻin menejerlari faoliyatida axborot assimetriyasining mavjudligi hamda ichki audit tizimidagi kamchiliklar korxonaning mavjud xatarlarni oʻz vaqtida aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Shu bilan birga risklarni baholash va boshqarish jarayonlarining sust tashkil etilishi tashqi iqtisodiy oʻzgarishlarning korporativ faoliyatga salbiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin.

Tahlil shuni koʻrsatadiki korporativ boshqaruvdagi inqirozlar aksariyat hollarda bir-biri bilan bogʻliq tashkiliy iqtisodiy va institutsional muammolarning bosqichma-bosqich toʻplanishi natijasida shakllanadi. Shu bois boshqaruv organlari vakolatlari va javobgarligini aniq belgilash, aksiyadorlar manfaatlari muvozanatini ta’minlash, ichki nazoratni kuchaytirish hamda risklarni boshqarishga tizimli yondashish korporativ barqarorlikni saqlashning muhim shartlari hisoblanadi.



1-rasm. Korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar[2]




2-rasm. Korporativ boshqaruvda inqirozga qarshi boshqaruvning asosiy prinsiplar tasnifi[3]

[2] Muallif ishlanmasi

Shunday qilib, Korporativ boshqaruvda inqirozga qarshi boshqaruv vositalarini tanlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan asosiy prinsiplar keltirilgan. Korxonada inqiroz yuzaga kelganda uning sabablari va xususiyatlarini to'g'ri baholash muhim hisoblanadi. Har bir inqirozli vaziyat o'ziga xos bo'lib, uni bartaraf etishda bir xil boshqaruv usullaridan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi.


Bunda inson omili, korxonaning tashkiliy-huquqiy imkoniyatlari va mavjud resurslardan foydalanish darajasi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash, manfaatdor tomonlar o'rtasida murosaga erishish va zarur resurslarni o'z vaqtida jalb etish inqiroz oqibatlarini yumshatishga yordam beradi. Shu jihatdan ushbu prinsiplarni birgalikda qo'llash korporativ boshqaruvdagi kamchiliklarni aniqlash, mavjud xavflarni kamaytirish va korxona faoliyatining barqarorligini saqlash imkonini beradi.



3-rasm. Inqirozga qarshi boshqaruvning asosiy mexanizmlari[4]

Bundan tashqari, inqirozga qarshi boshqaruvning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari ko'rsatilgan. Iqtisodiy mexanizmlar korxonaning moliyaviy holatini o'rganish, mavjud qarzdorlikni boshqarish va faoliyatni tiklashga qaratilgan. Bunda korxona biznesini baholash marketing va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish hamda inqirozga qarshi biznes-rejalashtirish muhim o'rin tutadi. Huquqiy mexanizmlar esa korxonada yuzaga kelgan moliyaviy muammolarni qonunchilik doirasida hal etishni nazarda tutadi. Jumladan, tashqi kuzatuv bankrotlik jarayoni korxonani sog'lomlashtirish va kelishuv bitimlari orqali uning keyingi faoliyati bilan bog'liq masalalar tartibga solinadi. Korporativ boshqaruvda ushbu ikki mexanizmdan vaziyatga qarab foydalanish korxonaning moliyaviy qiyinchiliklarini kamaytirish, to'lov qobiliyatini tiklash va faoliyatini barqaror davom ettirish imkonini beradi. Shunday qilib, korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ichki omillar keltirilgan. Ushbu omillar mulkchilik va kapital tuzilmasi, boshqaruv funksiyalari tashkiliy boshqaruv hamda biznes jarayonlari bilan bog'liq. Korxonada aksiyadorlar manfaatlarining to'qnashuvi mulkdorlar nazoratining sustligi va qarz yukining ortishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

[3] Nazariy bilimlarga asoslanib tadqiqotchi ishlanmasi
[4] Muallif ishlanmsi



4-rasm. Korporativ boshqaruvda inqirozlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ichki omillar[5]

Shu bilan birga, strategik rejalashtirishdagi xatolar, ichki nazoratning zaifligi va boshqaruv qarorlarining noto‘g‘ri qabul qilinishi mavjud muammolarni yanada kuchaytiradi. Tashkiliy boshqaruvda vakolat va mas’uliyatning aniq belgilanmaganligi hamda axborot almashinuvidagi kamchiliklar korxona faoliyatini samarali tashkil etishga to‘sqinlik qiladi.

Biznes jarayonlarida esa ta’minot zanjiridagi uzilishlar, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi va risklarni yetarli darajada baholamaslik inqiroz xavfini oshiradi. Shuning uchun korporativ boshqaruvda ushbu omillarni o‘z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish korxonaning barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega.

5. Xulosa

Olib borilgan tahlillar va tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, korporativ boshqaruv tizimida inqirozlarning yuzaga kelishi faqat moliyaviy qiyinchiliklar bilan bog‘liq emas. Boshqaruv qarorlaridagi xatolar, strategik rejalashtirishning sustligi va ichki nazoratdagi kamchiliklar ham inqirozli vaziyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli korxona faoliyatini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birga boshqaruv tizimining holatini ham o‘rganish zarur.

Ikkinchidan, korporativ boshqaruvda inqirozlarni yuzaga keltiruvchi omillar ichki va tashqi xususiyatga ega. Ichki omillar korxonaning boshqaruv va moliyaviy faoliyatidagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lsa tashqi omillar iqtisodiy beqarorlik va bozor sharoitlarining o‘zgarishi natijasida shakllanadi. Ushbu omillarning korxona faoliyatiga ta’siri uning iqtisodiy imkoniyatlari va boshqaruv salohiyatiga bog‘liq.

Uchinchidan, aksiyadorlar va menejerlar manfaatlarining mos kelmasligi hamda boshqaruv vakolatlarining noto‘g‘ri taqsimlanishi korporativ boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Bunday holatlar korxonada manfaatlar to‘qnashuvini kuchaytirib boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy

[5] Muallif ishlanmasi

ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois boshqaruv organlari o‘rtasida vakolat va javobgarlikni aniq belgilash hamda aksiyadorlar manfaatlari muvozanatini saqlash muhim hisoblanadi.

To‘rtinchidan, korporativ tuzilmalarda inqirozlarning oldini olish uchun strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish lozim. Korxonaning qarzdorlik darajasi va moliyaviy holatini muntazam o‘rganish mavjud muammolarni erta aniqlash imkonini beradi. Ichki nazorat va audit faoliyatining samarali tashkil etilishi esa boshqaruvdagi kamchiliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Beshinchidan, inqirozga qarshi boshqaruvda iqtisodiy va huquqiy mexanizmlardan foydalanish korxonaning moliyaviy holatini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mexanizmlar qarzdorlikni boshqarish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga qaratiladi. Huquqiy mexanizmlar esa korxonada yuzaga kelgan moliyaviy muammolarni qonunchilik doirasida hal etishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlarni korxonaning real holatidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, korporativ boshqaruvda inqirozlarning oldini olish uchun ularni yuzaga keltiruvchi omillarni dastlabki bosqichlarda aniqlash zarur. Bunda kuzatuv kengashi faoliyatini kuchaytirish va boshqaruv qarorlarining asoslanganligiga e’tibor qaratish lozim. Shuningdek axborot almashinuvini yaxshilash va ichki nazorat tizimini rivojlantirish korxonaning iqtisodiy barqarorligini saqlashga yordam beradi. Bu esa korporativ tuzilmalarning tashqi va ichki o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305–360.

2. Fama, E. F., & Jensen, M. C. (1983). Separation of ownership and control. The Journal of Law and Economics, 26(2), 301 - 325.

3. Hambrick, D. C., & Mason, P. A. (1984). Upper echelons: The organization as a reflection of its top managers. Academy of Management Review, 9(2), 193–206.

4. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). A survey of corporate governance. The Journal of Finance, 52(2), 737 - 783.

5. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1998). Law and finance. Journal of Political Economy, 106(6), 1113 - 1155.

6. Bebchuk, L., Cohen, A., & Ferrell, A. (2009). What matters in corporate governance? The Review of Financial Studies, 22(2), 783 - 827.

7. Claessens, S., & Yurtoglu, B. B. (2013). Corporate governance in emerging markets: A survey. Emerging Markets Review, 15, 1 - 33.

8. Yousaf, U. B., Jebran, K., & Ullah, I. (2024). Corporate governance and financial distress: A review of the theoretical and empirical literature. International Journal of Finance & Economics, 29(2), 1627 - 1679.

9. Rohman, N. A., & Suhardianto, N. (2024). Corporate governance for mitigating financial distress during COVID-19 in non-financial firms on Indonesia Stock Exchange. Accounting Analysis Journal, 13(1).

10. OECD. (2023). G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. OECD Publishing.

11. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). (2017). Enterprise Risk Management - Integrating with Strategy and Performance. COSO.